

“O‘zbekiston ilm-fanining jahon ilmiy makoniga integratsiyalashuvi uchun Springer Nature kompaniyasining axborot resurslari” mavzusidagi forum haqida

Bugun 2022-yil 15-noyabr kuni bo‘lib o‘tgan forum doirasida “Springer Nature” kompaniyasining strategiyasi, O‘zbekiston bilan hamkorlikning maqsad va vazifalari ko‘rib chiqildi. “Springer Nature” nashrining O‘zbekistondagi foydalanuvchilari statistikasi e‘lon qilindi. Umuman olganda bu kabi nashrlarda o‘zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlari yuzasidan yozayotgan salmoqli materiallari e‘lon qilinishi O‘zbekiston ilm fani taraqqiyoti mezoni hisoblanadi. Mazkur forum yakunida “Springer Nature” nashrlarida O‘zbekistonning eng ko‘p maqola nashr etgan 5 nafar olimlari va nashriyotning ilmiy resurslaridan foydalanish bo‘yicha eng faol 10 ta ilmiy tashkilotning taqdirlash marosimi bo‘ldi.



Unga ko‘ra O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Bexzod Yuldashev, Matematika instituti professori Ravshan Ashurovlar eng ko‘p maqolalari nashr etilgan olimlar sifatida, Fanlar akademiyasining Astronomiya instituti, Bioorganik kimyo instituti, O‘simlik moddalar kimyosi instituti ilmiy resurslardan foydalanishda eng faol bo‘lgan ilmiy tadqiqot institutlari sifatida e‘tirof etildi.

